SAMARQAND VILOYATI QO‘SHRABOT TUMAN HOKIMINING
QARORI

Qoʻshrabot sh., Gʻafur Gʻulom koʻchasi, 3-uy

2022 - yil 4 - iyul 159-7-97-Q/22 Qo‘shrabot tuman hokimligi

Tumandagi aholi punktlari ko‘chalari va xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 2-oktabrdagi “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonuni 20-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N

1. Tumandagi xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Shodiyev), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (I.Xoliqulov) boshqa tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda belgilangan tartibda xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalarini saqlash, ta’mirlash hamda obodonlashtirish ishlarini tashkil etib borsinlar.

3. Mazkur qaror tuman “Istiqbol sari” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Shodiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Д.Шакарбоев**

Qo‘shrabot tuman hokimining
2022 yil 4 iyuldagi
159-7-97-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi

NIZOM

Mazkur Nizom tuman hududidagi **xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalari**dan foydalanish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalaridan foydalanuvchilar — yo‘l harakatining ishtirokchilari bo‘lgan yoki ajratilgan mintaqa hamda yo‘l bo‘yi mintaqasi doiralarida belgilangan tartibda ruxsat etilgan faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

ajratilgan mintaqa — ko‘chalar va yo‘llar, ularning tegishli konstruktiv elementlari va muhandislik inshootlari, shuningdek yo‘llardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan binolar, inshootlarni joylashtirish, ihota va manzarali daraxtzorlar barpo etish uchun doimiy foydalanishga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan yer uchastkasi;

yo‘l bo‘yi mintaqasi — ajratilgan mintaqaga tutashgan, chegaralarida aholi xavfsizligini va transportning harakatlanish xavfsizligini ta’minlash uchun yerdan foydalanishning alohida shartlari belgilanadigan yer uchastkasi;

xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari — qishloq joylardan o‘tadigan va xo‘jaliklarni o‘zaro bog‘laydigan avtomobil yo‘llari. Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo‘ladi;

aholi punktlari ko‘chalari — shaharchalar, mahallalar, qishloqlar doirasida o‘tadigan va **ularni** o‘zaro bog‘laydigan aholi punktlarining tarkibiy qismi. **Aholi punktlari ko‘chalari**, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo‘ladi.

2. Tuman hududidagi yo‘llar xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlarining ko‘chalariga bo‘linadi.

3. Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini saqlash, qurish-ta’mirlash va ushbu yo‘llardan foydalanish bilan bog‘liq boshqa tadbirlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi va bu yo‘llar, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyorida ixtiyorida bo‘ladi.

4. Tumandagi aholi punktlarining ko‘chalari tuman, shaharchalar, mahallalar va qishloqlar doirasida o‘tadi, mazkur ko‘chalarning O‘zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari ro‘yxatiga belgilangan tartibda kiritilgan uchastkalari bundan mustasno.

Tuman aholi punktlarining ko‘chalari davlat mulki bo‘lib, mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo‘ladi.

5. Tumandagi **xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalari** davlat mulki bo‘lib, yo‘llardan foydalanuvchilar uchun ochiqdir. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalari** aholi ehtiyojlarini, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va mudofaa ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun tuman, shaharchalar, mahallalar hamda boshqa aholi punktlari o‘rtasida yuklar va yo‘lovchilar tashishni ta’minlaydi.

6. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalari** hamda ularga ajratilgan mintaqalarda harakat xavfsizligining ta’minlanganligi va to‘g‘ri tashkil etilganligi, harakat xavfsizligi talablariga zid kamchiliklar va noqonuniy qurilishlar bo‘lmasligi yo‘l tashkilotlari (yoki boshqa mutasaddi idoralar) hamda tuman ichki ishlar bo‘limining yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (keyingi o‘rinlarda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati deb ataladi) tomonidan nazorat qilinadi.

7. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalari** hamda ularga ajratilgan mintaqalarning kelgusida rivojlantirish rejasini hamda mazkur joylarga quriladigan ob’yektlarning me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiq bo‘lishini nazorat qilish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

1-bob. Tumandagi xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalarini moliyalashtirish

8. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari**

ko‘chalarini moliyalashtirish mahalliy budjet mablag‘lari, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

3-bob. Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalaridan foydalanuvchilarning huquqlari va majburiyatlari

9. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalaridan** foydalanish O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunlari va Yo‘l harakati qoidalariga amal qilgan holda amalga oshiriladi.

10. Yuridik va jismoniy shaxslar **xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalari**dan foydalanish huquqiga ega.

11. Yo‘l mintaqasidagi yer osti va ustidan o‘tuvchi hamda boshqa inshoot va kommunikatsiyalarni quruvchi yoki ta’mirlovchi tashkilotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etishlari shart.

Ajratilgan mintaqaning uchastkalari atrof-muhitni muhofaza qilish va harakat xavfsizligi qoidalari talablarini ta’minlash sharti bilan servis obyektlarini joylashtirish uchun vaqtincha foydalanishga belgilangan tartibda berilishi mumkin.

12. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalaridan foydalanuvchilar **xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalaridan foydalanishda quyidagi huquqlarga ega:

mutassil, yil davomida, xavfsiz, erkin va qulay sharoitlarda harakatlanish;

harakatlanishning yo‘l sharoitlari to‘g‘risida tezkor axborot olish;

yo‘llardagi nosozliklar tufayli yetkazilgan zararni belgilangan tartibda undirib olish.

13. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalaridan foydalanuvchilar:

harakat xavfsizligini va **xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalarini saqlashni ta’minlay oladigan holatdagi transport vositalaridan foydalanishlari;

ajratilgan mintaqani ifloslantirmasliklari shart.

14. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalari hamda ularning xavfsizlik mintaqalarida quyidagilar taqiqlanadi:

xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punkti ko‘chalarini saqlashga va harakat xavfsizligini ta’minlashga taalluqli bo‘lmagan inshootlarni qurish;

xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punkti ko‘chalariga, yo‘l inshootlari, yo‘l belgilari va ko‘rsatkichlariga, harakatlanishni tashkil etuvchi va boshqaruvchi texnik vositalarga hamda yo‘lga taalluqli boshqa narsalarga ziyon yetkazish;

asfaltobeton va sementobeton qoplamali **xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalarida zanjirli transport vositalarining maxsus himoyalovchi boshmoqlarsiz harakatlanish,

katta hajmli va og‘ir vaznli, havfli yuklarni tashishda belgilangan qoidalarga asosan maxsus ruxsatnomasiz harakatlanish;

podalarni haydab o‘tish (podalarni faqat belgilangan va tegishli yo‘l belgisi qo‘yilgan joydan haydab o‘tishga ruxsat etiladi) va ularni boqish;

qatnov qismi va yo‘l chetini, ko‘priklarni, quvurlarni, ariqchalarni, suv inshooti (drenaj) qurilmalarini ifloslantirish, yuklarni belgilangan tartibga rioya qilmasdan tashish;

yo‘nalishlarni ajratuvchi tasmaga barcha turdagi transport vositalarining chiqishi;

yo‘l va yo‘l inshootlarini har qanday elementlar bilan, aravalar, texnikalar, materiallar va boshqalar bilan to‘sib qo‘yish, arkalar va boshqa inshootlar qurish, chiqindi va qorlarni uyib qo‘yish;

ko‘priklar, yo‘l o‘tkazgichlar va boshqa sun’iy inshootlar ostida va ustida yo‘l infratuzilmasiga bog‘liq bo‘lmagan bino va inshootlarni qurish;

yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlarining **xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalarini kesib o‘tish joylarini elektr simi uzilganda yo‘l qismiga tushishiga qarshi xavfsizlikni ta’minlovchi himoya qurilmalarisiz qurish.

15. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalaridan foydalanuvchilarning yo‘lni balansda saqlovchi tashkilotlar bilan kelishmasdan quyidagilarni amalga oshirishi taqiqlanadi:

katta hajmli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish;

yo‘llarni kanallar, aloqa va elektr energiyasi uzatuvchi tarmoqlar, neft va gaz o‘tkazuvchi quvurlar hamda temir yo‘llar bilan kesib o‘tish;

yo‘llarga qo‘shiluvchi va shaxobcha yo‘llar qurish;

ko‘priklar va suv o‘tkazuvchi quvurlar yaqinida melioratsiya hamda boshqa maqsadlar uchun daryolar va zovurlarning o‘zanlarini chuqurlashtirish;

ajratilgan mintaqada yo‘l axborotiga aloqasi bo‘lmagan reklama, e’lonlar o‘rnatish va joylashtirish;

ajratilgan mintaqada ruxsatsiz ko‘kalamzorlashtirish ishlarini olib borish;

xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punkti ko‘chalarida sport musobaqalari va ommaviy tadbirlar o‘tkazish;

xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punkti ko‘chalarida transport va piyodalar xarakatiga ta’sir o‘tkazuvchi barcha ishlarni olib borish.

16. Yer osti va usti muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari yo‘l mintaqasi yoqalab o‘tkazilishi x**o‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalarini balansda saqlovchi vakolatli organ ruxsati bilan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4-bob. Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punkti ko‘chalarida transport vositalarining ruxsat etilgan gabaritlari va o‘qiga tushadigan yuk og‘irligi

17. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalarida transport vositalarining ruxsat etiladigan gabaritlari va o‘qiga tushadigan yuk og‘irligi umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llariga nisbatan belgilangan me’yorlarga muvofiq belgilanadi.

5-bob. Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punkti ko‘chalarida transport vositalari harakatini vaqtincha cheklash

18. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalarida transport vositalari harakati quyidagi hollarda vaqtincha cheklanishi mumkin:

xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punkti ko‘chalarini qayta qurish, mukammal ta’mirlash va ta’mirlashda;

noqulay tabiiy iqlim sharoitlarida yo‘llar (ko‘chalar) va ularning ayrim bo‘laklaridagi konstruktiv elementlarning ko‘tarish imkoniyati pasayganida va

boshqa holatlarda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda.

19. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalarida transport vositalari harakati vaqtinchalik cheklansa, ularni balansda saqlovchi va ta’mirlovchi tashkilot ushbu holat yuzasidan **xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalaridan foydalanuvchilarni ogohlantirishi shart.

20. Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida vaqtinchalik transport vositalari harakati cheklovi quyidagi hollarda joriy qilinishi mumkin:

yo‘llarning qurilmaviy elementlari o‘ta namlanganda;

yo‘llar qurilmaviy elementlarining o‘ta yuqori havo harorati ta’sirida yuk ko‘tarish imkoniyati susayganda.

6-bob. Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punkti ko‘chalarini saqlash va ta’mirlashda yo‘l qurilishi tashkilotlarining huquq va majburiyatlari

21. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalari**ni** saqlash va ta’mirlashda **yo‘l qurilishi tashkilotlari** yo‘l harakati xavfsizligi xizmati va favqulodda vaziyatlar bo‘limi bilan hamkorlikda noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida, tabiiy ofatlar, yong‘inlarda yo‘llarning yuk ko‘tarish imkoniyatining yo‘qolishi va boshqa shu kabi vaziyatlarda, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirishda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda transport vositalari harakatini vaqtincha cheklash huquqiga ega.

Bunda transport vositalari harakatining vaqtincha cheklovi haqida tegishli tashkilotlar, **xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalari foydalanuvchilari xabardor qilinishi shart.

22. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalari**ni** saqlash va ta’mirlashda **yo‘l qurilishi tashkilotlari:**

yo‘llar va ko‘chalarni hamda muhandislik inshootlarini soz holatda saqlash va **yo‘l(**ko‘cha)lardan transport vositalarining muttasil hamda xavfsiz o‘tishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishini ta’minlashi;

yo‘llar va ko‘chalarni hamda muhandislik inshootlarini ta’mirlashda tegishli yo‘l belgilari o‘rnatilishini ta’minlashi shart.

7-bob. Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punkti ko‘chalaridan foydalanish tartibini buzganlik uchun javobgarlik

23. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalari**dan foydalanish tartibini** buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

8-bob. Yakuniy qoidalar

46. **Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va** aholi punkti ko‘chalari sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.